

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**RAQAMLASHTIRILGAN TA'LIM TIZIMIDA BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLARNI DIAGNOSTIK KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANGANLIGINI ANIQLASH TAJRIBASIDAN**

Z.A.Xolmatova

Qo`qon davlat universiteti professori

Annotatsiya: yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifalari ro'yobga chiqarishda oliy o'quv yurtlari o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Ayniqsa raqamli ta'limning globallashuvi sharoitida bo'lajak pedagogik kadrlarni tayyorlashda diagnostik kompetensiyalarini rivojlanganligini aniqlashdagi tajribalarini o'tkazilishi mavjud muammolar va ularning yechimlarini aniqlash uchun yaratilgan sharoitdir. Mazkur maqolada aynan raqamli ta'lim jarayonida bo'lajak pedagog kadrlarni diagnostik kompetensiyalarini rivojlanganligini aniqlash tajribasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, pedagog kadr, ta'lim olish, diagnostika, texnologiya,, tajriba-sinov, tizimli o'zgarish, o'quv-tarbiya jarayoni

Аннотация: В связи с проводимыми в нашей стране реформами высшие учебные заведения вносят свой вклад в реализацию задач подготовки высококвалифицированных специалистов. Особенно в условиях глобализации цифрового образования проведение экспериментов по определению сформированности диагностических компетенций в процессе подготовки будущих педагогических кадров является необходимым условием для выявления существующих проблем и путей их решения. В данной статье рассматривается опыт определения сформированности диагностических компетенций будущих педагогических кадров в процессе цифрового образования.

Ключевые слова: цифровое образование, педагогические кадры, образование, диагностика, технологии, эксперимент-апробация, системные изменения, образовательный процесс

Abstract: In light of ongoing reforms in our country, higher education institutions are contributing to the development of highly qualified specialists. Particularly in the context of the globalization of digital education, conducting experiments to determine the development of diagnostic competencies in the training of future teaching staff is essential for identifying existing problems and ways to address them. This article examines the experience of determining the development of diagnostic competencies of future teaching staff in the digital education process.

Keywords: digital education, teaching staff, education, diagnostics, technology, pilot testing, systemic changes, educational process

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Raqamli ta'lim – bu raqamli texnologiyalar va onlayn platformalardan foydalangan holda o'qitish va o'rganish jarayonidir. U bo'lajak pedagog kadrlarga istalgan joydan, istalgan vaqtda ta'lim olish imkonini beradi va interaktiv vositalar hamda resurslar bilan boyitilgan.

Raqamli ta'lim jarayonida ta'lim diagnostikadan foydalanish texnologiyalarining samaradorligi pedagogik tizimlarda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari bilan xarakterlanadi. Tadqiqotimizning birinchi tomoni ta'lim diagnostikasi, bo'lajak pedagog kadrlarning kompetensiyalarini diagnostika qilish bo'yicha metodikalarni ishlab chiqish, ularni tashkil etish va amalga oshirish, o'zgarishlar natijalarini xulosalash jarayoni bo'lsa, ikkinchi tomoni o'zgarishlar natijalarini diagnostika, ularning samaradorligini aniqlashga yo'naltiriladi.

Tajriba-sinov ishlari Qo'qon davlat universitetida o'tkazildi va olingan natijalarning samaradorligi aniqlanib, ilgari surilgan g'oya isbotlandi. Tajriba-sinov ishlari samaradorlik o'rsatkichlari "yuqori" (kreativ), "o'rta" (produktiv), "past" (reproduktiv) darajalar bo'yicha baholandi. Tajriba va nazorat guruhlar uchun jami 153 nafar turli ta'limiy o'nalishidan bo'lajak pedagog kadrlar jalb qilindi. Tajriba-sinov ishi manfaatlaridan kelib chiqqan holda bo'lajak pedagog kadrlarni ikkita tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi (1.–jadval).

1.–jadval

Diagnostika kompetensiyalarini rivojlantirishning baholash bo'yicha tajriba sinov ishlarida qatnashuvchilar

№	Ta'lim muassasalari	Guruhlar	Ishtirokchilar soni
3	Qo'qon davlat pedagogika universiteti	Tajriba guruhi	77
		Nazorat guruhi	76
Jami		Tajriba guruhi	77
		Nazorat guruhi	76

Tajriba-tadqiqotlar mobaynida ta'lim diagnostikadan foydalanish orqali oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayonlarini qulaylashtirish va optimallashtirishda samarali natijalar berishi aniqlandi. Tadqiqot davomida ta'lim jarayonida ta'lim diagnostika metodlaridan foydalanish yo'nalishida amalga oshirilib, tajribalar bo'lajak pedagog kadrlarning bilim saviyasida, barqaror ijobiy dinamikani ta'minlaganini va o'qituvchilarning kompetensiyalari rivojlanganligining o'quv yili boshi va yakunida o'tkaziladigan attestatsiya natijalarini tahlil qilish orqali kuzatildi. Bo'lajak pedagog kadrlarda kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus kompetensiyalarning rivojlanganligida namoyon bo'ldi.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Tajriba-sinovlarning maqsadi raqamli ta'lim jarayonida ta'lim diagnostika metodlaridan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat bo'ldi.

Tizimli o'zgarishlar bosqichma-bosqich, uzluksiz tarzda tashkil etib borilganligi bois tajriba-sinov ishlarining asosiy vazifasi – o'qitish shakli va metodlariga kiritilgan o'zgarishlarning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlash deb belgilandi. Tajriba-sinov ishlarining asosiy farazi – oliy ta'lim jarayonida ta'lim diagnostikadan oqilona foydalanilganda ta'lim samaradorligi oshishini ta'minlaydi.

Bo'lajak pedagog kadrlar kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasini diagnostika qilish jarayoni tajriba-sinov ishlarining obykti sifatida tanlandi va shakllantiruvchi tajriba-sinovlarda aynan ana shu obyektga nisbatan amalga oshirilgan ta'sirning natijalari o'rganildi.

Tajriba-sinov o'tkazilgan davrda barcha oliy ta'lim tizimi uchun yaratilgan sharoitlarning bir xilligi, shuningdek, nazorat va tajriba guruhlar tarkibining, asosan o'xshashligi, bo'lajak pedagog kadrlarda esa yosh davrlarining inobatga olinishi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha bir xil nisbatda shakllangani e'tiborga olingan holda nazorat va tajriba guruhlaridagi natijalar faqat o'quv jarayoniga kiritilgan o'zgarishlarning ta'sirini baholash nuqtayi nazaridan taqqoslandi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotda raqamli ta'lim jarayonida ta'lim diagnostikadan foydalanish texnologiyalarining tashkil qilinish holati, mazmuni, amal qilish xususiyatlari o'rganildi. Tajribaning yangi sifat bosqichini keltirib chiqarishga xizmat qiladigan pedagogik shart-sharoitlar, qonuniyatlar, metod, shakl, vosita va uslublari aniqlandi, pedagogik amaliyot tajribasiga tashkil etish asosida zarur tavsiyalar tizimi ishlab chiqildi. Shakllantiruvchi tajriba-sinovi davrida o'quv-tarbiya jarayonini diagnostika qilish texnologiyalarini takomillashtirish asosida tashkil etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmatova Z.A. Ta'lim jarayonida pedagogik diagnostikadan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish (o'rta maxsus va boshlang'ch professional ta'lim misolida), Monografiya, 2022. –145 b
2. E.Yuzlikayeva. Diagnostika faoliyatga o'qituvchini tayyorlash nazariyasi va amaliyoti (Teoriya i praktika podgotovki uchitelya k diagnosticheskoy deyatelnosti). Ped.fan. dok...diss. 2020
3. Родина Е.В. Диагностика и коррекция учебно-исследовательской деятельности студентов. Москва 2010
4. Ингенкампф Карлхайнц. Педагогическая диагностика.-Берлин:Школа, 2009.-456 с

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

